

## 1. Yerdagi suv zaxiralari




Diagrammani o'rganib chiqing. Suv Yerding qayerlarida bo'ladi?



Globusni ko'rib chiqing. Yerda qanday okeanlar bor? Siz qaysi dengiz nomlarini ayta olasiz? Qaysi Ko'llarni bilasiz? Qaysi daryolarni bilasiz? Ularni daftaringizga yozing.

## 2. Chuchuk suv

Yer yuzidagi chuchuk suv miqdori okeanlardagi sho'r suvgaga qaraganda juda kam. Chuchuk suvning asosiy zaxiralari muzliklarda, muztog'larda, yerusti va yerosti daryolarida bo'ladi. Yerosti suvlari yer ustiga buloq va jilg'a shaklida chiqadi.




 Nima uchun dengiz suvini ichib bo'lmasligini tushuntirib bering.

 Qaysi suv manbalarida chuchuk suv, qaysilarida esa sho'r suv bo'lishini daftaringizga yozing.

### 3. Sun'iy ko'llar

Qadimda ham, hozir ham odamlar ichish, taom tayyorlash va maishiy ehtiyojlar uchun, ekinlarni va uy hayvonlarini sug'orish uchun chuchuk suvdan foydalanadilar. Shu sababli odamlar qadimdan chuchuk suv manbalari – daryo va ko'llar atrofida yashashgan.

Lekin daryodagi suv miqdori turli fasllarda o'zgarib turadi. Bahorda, tog'lardagi qorlar eriy boshlaganda, daryolar to'lib oqib, toshqinlar yuzaga keladi. Yozda esa ba'zi daryolar qurib qoladi, ba'zilari esa sayoz jilg'aga aylanadi. Daryodagi suvning bunday o'zgarishlariga tobe bo'lib qolmaslik uchun odamlar suv omborlari barpo qilishni o'rganib olishgan.



**Suv ombori** – bu suv saqlash uchun mo'ljallangan sun'iy suv havzasi. Suv ombori qurish uchun daryoning o'zani devor yoki to'siq – to'g'on bilan to'sib qo'yiladi. To'g'on juda katta miqdordagi suvni ushlab qoladi, natijada sun'iy ko'l hosil bo'ladi. Ko'pincha to'g'on gidroelektrostansiyaning bir qismi sifatida qurilib, undagi maxsus teshiklarga turbinalar o'rnatiladi. Bu turbinalar o'sha teshikdan kuch bilan oqib tushayotgan suvning ta'siri ostida aylanadi. Aylanayotgan turbinadan elektr energiyasi hosil bo'ladi.



To'g'onlarning insonlar hayoti va atrof-muhitga foydali va zararli ta'sirlarini sanab o'ting.

## 4. Muzliklar

Eng ko'p chuchuk suv Antarktida muzliklarida saqlanadi. Antarktida Yer sharining janubida joylashgan. U yerda o'rmonlar ham, daryolar ham yo'q – butun materik qalin muz qatlami bilan qoplangan. Bu qatlamning qalnligi 2500–2800 m.

Antarktidani qoplab yotgan muz qatlamining chetlari ajralib, sinib tushsa, kattakon muz bo'laklari – **aysberglar**, ya'ni muztog'lar paydo bo'ladi. Muztog'lar materikdan ajralib, okeanga tushadi. U yerda okean oqimi muztog'larni oqizib ketadi. Muztog'lar iliq oqim ta'sirida eriy boshlaydi. Suv sathida muztog'ning kichik bir qismi ko'rini turadi, uning asosiy – kattagina qismi esa suv ostida bo'ladi.

Shimoliy yarimsharda muzliklar juda ko'p. Yevrosiyo materigining shimoliy qismi abadiy muzliklar bilan qoplangan.



1. Suv Yer yuzida qanday holatda saqlanadi?
2. Suv havzalarining nomlarini eslang. Ular bir-biri bilan qanday bog'langan bo'lishi mumkin?
3. Suv omborlari nima uchun kerak?



"Men yashaydigan mintaqadagi suv havzalari" nomli tadqiqot loyihasini bajaring. O'zingiz yashaydigan joydagi suv havzalaridan biri – daryo, hovuz, ariq, soy yoki ko'l haqida hikoya yozing. Unutmang, har bir suv havzasi tabiat uchun nihoyatda muhimdir!